

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-3.20.02

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**DAVLAT MOLIIYASI TARIXI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: prof. Sobirov H.,
dots. Jamolov X.

Taqrizchilar: prof. Malikov T.,
prof. Vahobov A.

Dasturdan ko'zlangan maqsad davlat moliyasi tarixi bo'yicha zaruriy ko'nikmalarni berishdir. Iqtisodiy oliy ta'lim maskanlarida ta'lim oluvchi talabalarning mazkur dastur asosida ta'lim olishlari Davlat moliyasi tarixi predmetidan zaruriy bilimlarni olishga ko'maklashadi.

Davlat moliyasining roli ortib borayotgan bir paytda uni samarali boshqarish uchun har bir mutaxassis davlat moliyasi tarixini chuqur bilish zarur.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida Davlat byudjetining roli beqiyos katta. Mazkur dastur Davlat moliyasi tarixini o'rganishning nazariy yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

Mazkur dastur asosida taqdim etilgan ma'ruzalar Davlat moliyasi tarixi bilan bog'liq muammolarni echish uchun zaruriy ko'nikmalar berishni nazarda tutadi.

Данная программа включает в себя исторические корни формирования и развития государственных финансов и предназначена для студентов направления бакалавриата "Финансы" сферы "Бизнес и управление". В программе освещены гносеологические основы государственных финансов Республики Узбекистан, которые отражают суть вопросов лекционных, практических (семинарских) занятий и тем самообразования. В программе приведен список литературы для изучения предмета на узбекском, русском и английском языках. К списку приложена перечень сайтов интернета и компьютерных учебных программ по соответствующим темам курса.

The aim of this program is to provide necessary skills about History of Public Finance.. The students who is study according to this program of high economic schools obtained necessary skills about History of Public finance.

The role of Public finance is improving and to effectively managing of Public finance every specialists have to know the history.

Budget System play a great role in countries social and economic life.. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning History of Public finance.

The rate of given lectures stipulated by the program will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with Public Finance history.

Dastur Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2002 yil 9-son majlis bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Davlat moliyasi tarixi" fanini o'qitishdan maqsadi – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun. O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi va uning tarixi xaqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga oshiradigan moliya va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fan oldiga quyidagilarni o'rganish vazifalari qo'lgan:

- davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini;
- davlat moliyasi va uning tizimini;
- byudjet tizimini boshqarishning tashkiliy asoslarini;
- davlat daromadlari tizimini va uning manbalarini;
- davlat xarajatlari tarkibini;
- byudjet jarayoni va byudjet istiqbolini belgilash asoslarini;
- byudjet kamomadi ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni pasaytirish imkoniyatlarini;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning moliyaviy va byudjet siyosatini asosiy yo'nalishlarini va h.k.

"Davlat moliyasi tarixi" fani "Moliya", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Iqtisodiy nazariya", "Davlat moliyasi", "Chet mamlakatlar moliyasi" kabi fanlardan olingan nazariy bilimlarga asoslanadi.

Shu bilan birga "Davlat moliyasi tarixi" fani qator maxsus fanlar, jumladan, "Davlat byudjeti", "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish", "Nobyudjet fondlar", "Xalqaro moliya munosabatlari", "Korxonalar moliyasi", "Soliq nazariyasi", "Sug'urta asoslari", "Qimmatli qog'ozlar bozori" kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSGa) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda tarixiy manbalardan, hukumat qarorlari, moliyaviy qonunchilik, ommaviy-axborot vositalari orqali davlat moliyasi tarixiga oid kundalik o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalarini to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar davlat moliyasi tarixiga oid ma'lumotlarni tahlil qilish, moliyaviy ta'limotlarni umumlashtirish, qiyosiy tahlil etish va ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish usullaridan foydalana bilishlari lozim.

"Davlat moliyasi tarixi" fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, davlat moliyasi tarixiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda davlat moliyasi haqidagi iqtisodiy ta'limotga doir adabiyotlarni o'rganib, malakalarini oshirishlarida ham qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Talabalar ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar bo'yicha tegishli mavzulardan konspektlar oladi, referat va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadi. Amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollarni talabalar mustaqil ravishda to'liq o'zlashtirishlari lozim.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur fanga 54 soat hajmda vaqt ajratilgan. Ularning 18 soati ma'ruza, 18 soati amaliy mashg'ulotlar va 18 soati mustaqil ta'limdir. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish V o'quv semestriga mo'ljallangan.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasi o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholash asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishning bir semestrda ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash (yozma ish usulida) amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasi ko'zda tutilganligi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilishi;
- muammoli usul va haqiqatni imitatsion modellashtirish asoslaridan foydalanilishi;
- tayanch iboralarga asoslangan yozma ish orqali nazorat ishlarini o'tkazish tizimidan foydalanilishi.

Bu fanni o'qitishda moliya sohasiga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, tarixiy hujjatlar va manbalar, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projest expert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dasturni tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturlar tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Fan bo'yicha bakalavriat bosqichining tegishli yo'nalishlari uchun tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar hisobga olinishi zarur;
2. Har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy xujjatlar hamda tegishli moliyaviy qonunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini jalb etadigan tarzda berilishi kerak;
3. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratilib ko'rsatilishi lozim;
4. O'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari hamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar ham yoritilishi lozim.

2. FAN DASTURI

"Davlat moliyasi tarixi" fani bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar mavzulari

Kursning predmeti va mazmuni

"Davlat moliyasi tarixi" fanining predmeti, metodi va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Mavzularning davriy-xronologik va mantiqiy taqsimlanishi.

Quldorlik va feodalizm sharoitida moliya

Quldorlik davlatlarining moliyasi, quldorlik davlatlari moliyasining nazariy masalalari. Pulning va tovar-pul munosabatlarining kelib chiqishi, quldorlik davlatlarining daromadlari. Dastlabki soliqlarning kelib chiqishi. Soliq xaqidagi dastlabki qonunlar va soliqlarni undirish tartibi. Gretsiya, Rim va Misrda davlat moliyalari. O'zbekistonda quldorlik va feodalizm tizimining o'zaro bog'lanib ketganligi. Feodal davlat moliyasining quldorlik davlati moliyasidan farqi, feodal davlatlarning daromad va xarajatlari. O'rta asr shaharlarida feodal davlat moliyasi xususiyatlari. O'zbekistonda davlat moliyasining kelib chiqishi, Axmoniy Iskandar Zulqarnayn, arab istilosi va mo'g'ullar davrida moliya, uning quldorlik va feodal xususiyati.

Amir Temur davlati moliyasi va amalga oshirilgan moliyaviy tadbirlar

Amir Temur tomonidan qadimdan mavjud bo'lib kelgan o'zbek davlatchiligi boshqaruv tizimlarining ilmi klassik namunalarining qayta tiklanishi. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" va Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarlarida moliya masalalari. A.Temurning soliq nazariyasining A. Smitdan 3-4 asr oldin bayon etilganligi. "Temur tuzuklari"da bo'lajak byudjetlarning nihollari. Temur tomonidan asoslangan soliq tizimi va xazinani boshqarish. Mahalliy va markaziy moliyalarni boshqarishning takomillashtirilishi. Amir Temur tadbirlarining Bobur va Ulug'bek tomonidan rivojlantirilishi, Alisher Navoiyning moliya sohasidagi fikrlari va faoliyati.

Markaziy Osiyo xonliklarida moliya

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining shakllanishi. Xonliklarda moliyani boshqarishdagi umumiy usullar va ayrim xususiyatlar. Davlat xazinasining boshqarilishi. Amir Temur tavsiyalarining inkor qilinishi, xarajatlar tarkibi, soliqlar tizimi, er solig'i va boshqa soliqlarni hisoblash usullari, chorvachilik, savdodan olinadigan soliq va boshqa soliqlar. Soliq sohasidagi shariat tavsiyalarini mahalliy amaldorlar tomonidan inkor etilishi. Mahalliy soliqlar va ularning xususiyatlari. Soliq to'plashning boshqarilishi va soliq boqimandasini undirish, xonliklar davrida iqtisodiy, moliyaviy fikrlarning rivoj-

lanishi, Marg'iloniy, Ahmad Donish, Maxmur, Zavqiy, Berdax, Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Sadridin Ayniy va boshqalarning asarlarida moliya masalalari. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyo-satining xonliklar davlat moliyasiga ta'siri.

Mustamlaka davrida Turkistonda davlat moliyasi

Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida. *Evropada davlat moliyalari va moliya fanining rivojlanishi.* J.Boden, M.Syulli, A.Reshele, U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, N.I.Turgenevlarning moliyaviy qarashlari. Moliya fani bo'yicha birinchi darsliklarning yaratilishi. Moliya kategoriyalari va ularning xillari (davlat byudjeti, soliq tizimi, mahalliy moliyalar, davlat korxonalarining moliyasi, sug'urta). *Turkiston bosib olingandan keyin xonliklar moliyasining Rossiya moliya tizimiga aylantirishga qaratilgan tadbirlar.* Rus amaldorlarining Turkiston Rossiya uchun zarar keltiruvchi mustamlaka nazariyasi tanqidi. *Turkiston davlat moliyasi Rossiya moliyasining tarkibiy qismi.*

Turkiston mustamlakachiligida davlat byudjetining xarajatlari

Byudjetning mohiyati va funksiyalari. Byudjetning milliy daromadlarni taqsimlashdagi roli. *Byudjetning daromad va xarajatlari. Turkiston general gubernatorligining xarajatlari.* Harbiy va mustamlakaning jabr-zulmi, boshqaruv xarajatlari. Iqtisodiy tadbir xarajatlari va ularning xususiyatlari. Shaharlar va mahalliy byudjetlar tomonidan ijtimoiy-madaniy tadbirlarga qilingan xarajatlarning o'ziga xos belgilari. *Davlat soliqlari va daromadlari.* Xonliklardagi soliqlarni Rossiya soliq tizimiga aylantirilishi. Buxoro amirligi va Xiva xonliklari pul muomalasiga Rossiyaning iqtisodiy ta'siri. Rossiya xarajatlarining xonliklar hisobiga qoplanishi. *Buxoro amirligining Lagofet tuzgan byudjet loyihasi.*

Oktyabr to'ntarilishidan keyin O'zbekistonda moliya sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar va ularning mustamlakachilik xarakteri

Turkiston avtonom respublikasi, Buxoro va Xorazm respublikalarida amalga oshirilgan dastlabki moliyaviy tadbirlar va ularning mazmuni. 1921 yilda Turkistonda o'tkazilgan pul islohoti va uning respublika moliya tizimini shakllantirishdagi roli. *Buxoro va Xorazm respublikalarining byudjetlari va ular xarajatlarini emissiya asosida qoplanishi.* Bu respublikalarda o'tkazilgan pul islohotlari va ularning byudjet tizimiga ta'siri.

O'zbekistonda moliya tizimini shakllantirishning asosiy bosqichlari

O'zbekistonning ilk davridagi moliyasi va dastlabki "byudjeti" ning qaramlik xarakteri; byudjetning daromadlari va xarajatlari. Byudjet kamomadi va uning

sabablari. 1930 yildagi soliq va kredit islohotlari. Davlat moliyasini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar. O'zbekiston milliy daromadini Rossiya manfaatlarini ko'zlab taqsimlashda davlat byudjeti orqali o'tkazilgan tadbirlar. 1930 yilda amalga oshirilgan soliq islohoti va oborot solig'ining respublika daromadlarini qayta taqsimlashdagi roli.

O'zbekiston moliyasi ikkinchi jahon urushi davrida

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti va moliyasida sodir bo'lgan o'zgarishlar. Byudjet daromadlarida aholidan olinadigan soliqlar hissasining ko'payishi. O'zbekistonning mamlakat mudofaa fondiga qo'shgan hissasi. Byudjet daromadlaridagi o'zgarishlar, harbiy soliq va boshqa yig'imlar. Ikkinchi jahon urushi yillarida byudjet daromad va xarajatlaridagi o'zgarishlar. Xo'jalik islohoti va uning byudjetga ta'siri. Urushdan keyingi davrda respublika milliy daromadining eng ko'p qismini ittifoq byudjeti va qo'shni respublikalar moliya tizimi orqali safarbar qilinishi.

O'zbekistonda sug'urta

Shariat va boshqa qadimgi qonunlarda tabiiy ofat, shikastlanish, muhtojlik hollarda fuqarolarni ta'minlash jamg'armalari. *Fondli va fondsiz sug'urtalar jamg'armalarining shakllanishi. G'arbiy Evropada sug'urta monopoliyalari va ularning Rossiyaga ta'siri. Rossiyada dastlabki sug'urta monopoliyalarining tashkil qilinishi va ularning Turkistonda vujudga kelgan bo'limlari. 1912 yilgi to'ntarishdan keyin Turkistonda sug'urtani tashkil qilinishi. O'zbekistonda sug'urta monopoliyasining tugatilishi va 1930 yilda O'zbekistonda birinchi sug'urta to'g'risidagi qonunining qabul qilinishi. 1997 yilda "O'zagrosug'urta" DASK, "Kafolat" DASK va "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi va ularning boshqa moliya tashkilotlari bilan munosabatlari.*

Imperiya moliya tizimining tugatilishi va O'zbekistonda mustaqil moliya tizimining shakllanishi

Sobiq Ittifoq tomonidan 70 yil davomida mustamlakachilik moliya siyosatining amalga oshirilishi. *Ittifoq tugatilganidan keyin izdan chiqqan pul muomalasi, qarzlarga botgan kredit tizimi, taqchilligi jihatidan rekord qo'ygan byudjet tizimining meros qilib qoldirilishi. O'zbekistonning moliyaviy mustaqilligini ta'minlovchi dastlabki tadbirlar. Yangi konstitutsiyada O'zbekistonning mustaqil byudjeti. Soliq tizimi, pul birligi mavjudligining qonunlashtirilishi. O'zbekistonda o'tgan 11 yil davomida moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha erishilgan muvaffaqiyatlar. I.A.Karimovning iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida moliya tizimining navbatdagi vazifalari va ularni amalga oshirishda moliya muassasalarining roli haqidagi ko'rsatmalari.*

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA-HISOB ISHLARI, KURS ISH(LOYIHA)LARI MAVZULARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati

Kursning predmeti va mazmuni

"Davlat moliya tarixi" fanining predmeti, metodi va vazifalari*. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi*. Mavzularning davriy-xronologik, mantiqiy taqsimlanishi.

O'zbekistonda quldorlik va feodalizm sharoitida moliya

Quldorlik davlatlarining moliyasi, quldorlik davlatlari moliyasining nazariy masalalari*. Soliq haqidagi dastlabki qonunlar va soliqlarni undirish tartibi*. Gretsiya, Rim va Misrda davlat moliyalari. Feodal davlat moliyasining quldorlik davlati moliyasidan farqi feodal davlatlarining daromad va xarajatlari. O'zbekistonda davlat moliyasining kelib chiqishi, Ahmoniy Iskandar Zulqarnayn, arab istilosi va mo'g'ullar davrida moliya, uning quldorlik va feodal xarakteri.*

Amir Temur davlatining moliyasi va amalga oshirilgan moliyaviy tadbirlar

Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan qadimdan mavjud bo'lib kelgan o'zbek davlatchiligi boshqaruv tizim ilmiy klassik namunalarining qayta tiklanishi*. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" va Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarlarida moliya masalalari. Temur tomonidan asoslangan soliq tizimi va xazinani boshqarish*. Mahalliy va markaziy moliyalarni boshqarishning takomillashtirilishi. Bobur, Ulug'bek va Alisher Navoiyning moliya sohasidagi fikrlari va faoliyati*.

Markaziy Osiyo xonliklarida moliya

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining shakllanishi. Xonliklarda moliyani boshqarishdagi umumiy usullar va ayrim xususiyatlar. Amir Temur shariat tavsiyalarini mahalliy amaldorlar tomonidan inkor etilishi. Marg'iloniy, Axmad Donish, Maxmur, Zavkiy, Berdax, Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Sadridin Ayniy va boshqalarning asarlarida moliya masalalari*. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining xonliklar davlat moliyasiga ta'siri.

Mustamlaka davrida Turkistonda davlat moliyasi

Evropada davlat moliyalari va moliya fanining rivojlanishi. J.Boden, M.Syulli, A.Reshele, U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, N.I.Turgenevlarning moliyaviy qarashlari. Turkiston bosib olingandan keyin xonliklar moliyasini Rossiya moliya tizimiga

aylantirishga qaratilgan tadbirlar*. Turkiston davlat moliyasi - Rossiya moliyasining tarkibiy qismi.

Turkiston mustamlakachiligida davlat byudjetining xarajatlari

Byudjetning milliy daromadlarni taqsimlashdagi roli. Turkiston general gubernatorligining xarajatlari*. Shaharlar va mahalliy byudjetlar ijtimoiy-madaniy tadbirlarga xarajatlarining o'ziga xos belgilari*. Davlat soliqlari va daromadlari. Buxoro amirligi va Xiva xonliklari pul muomalasiga Rossiyaning iqtisodiy ta'siri. Buxoro amirligining Lagofet tuzgan byudjet loyihasi*.

Oktyabr to'ntarilishidan keyin O'zbekistonda moliya sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar va ularning mustamlakachilik xarakteri

Turkiston avtonom respublikasi, Buxoro va Xorazm respublikalarida amalga oshirilgan dastlabki moliyaviy tadbirlar va ularning mustamlakachilik mazmuni*. Buxoro va Xorazm respublikalarining byudjetlari va ularning xarajatlarini emissiya asosida qoplanishi*. Bu respublikalarda o'tkazilgan pul islohotlarini byudjet tizimiga ta'siri.

O'zbekistonda moliya tizimini shakllantirishning asosiy bosqichlari

1930 yildagi soliq islohoti. 1930 yildagi kredit islohoti. O'zbekiston milliy daromadini Rossiya manfaatlarini ko'zlab taqsimlashda davlat byudjeti orqali o'tkazilgan tadbirlar. 1930 yilda amalga oshirilgan soliq islohoti va oborot solig'ining respublika daromadlarini qayta taqsimlashdagi roli.

O'zbekiston moliyasi ikkinchi jahon urushi davrida

Byudjet daromadlarida aholidan olinadigan soliqlar hissasining ko'payishi. Byudjet daromadlaridagi o'zgarishlar, harbiy soliq va boshqa yig'implar. Ikkinchi jahon urushi yillarida byudjet daromad va xarajatlaridagi o'zgarishlar*. Urushdan keyingi davrda respublika milliy daromadining eng ko'p qismini ittifoq byudjeti va qo'shni respublikalar moliya tizimi orqali safarbar qilinishi.

O'zbekistonda sug'urta

Shariat va boshqa qadimgi qonunlarda tabiiy ofat, shikastlanish, muhtojlik hollarda fuqarolarni ta'minlash fondlari. Rossiyada dastlabki sug'urta monopoliyalarining tashkil qilinishi va ularning Turkistonda vujudga kelgan bo'limlari*. 1912 yilgi to'ntarishdan keyin Turkistonda sug'urtaning tashkil qilinishi. 1930 yilda O'zbekistonda birinchi sug'urta qonunining qabul qilinishi*. 1997 yilda "O'zagrosug'urta", "Kafolat" va "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi va ularning sug'urta tashkilotlari bilan munosabatlari*.

Imperiya moliya tizimining tugatilishi va O'zbekistonda mustaqil moliya tizimining shakllanishi

Sobiq Ittifoq tomonidan 70 yil davomida mustamlakachilik moliya siyosatining amalga oshirilishi. O'zbekistonning moliya mustaqilligini ta'minlovchi dastlabki tadbirlar*. Yangi kontitutsiyada O'zbekistonning mustaqil byudjeti. O'zbekistonda o'tgan 11 yil davomida moliya tizimini rivojlantirishda erishilgan muvaffaqiyatlar.* I.A.Karimovning iqtisodiy islohotlarining ikkinchi boskichida moliya tizimining navbatdagi vazifalari va ularni amalga oshirishda moliya muassasalarining roli haqidagi ko'rsatmalari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI

Mavzularni chuqur o'rganishda ko'rgazmali vositalar, slaydlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish ko'zda tutilgan.

Case Studies: O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi tarixi tahliliga doir o'quv misollari (rus tilida). Davlat tarixi instituti ochiq jamiyati homiyligida Iqtisodiy Markaz tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: WWW.google.ru (Budapesht, Evropa Markaziy Universiteti dasturlari); WWW.yandex.ru; WWW.rambler.ru; WWW.worldbank.org.ru; WWW.imf.org.

Kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistik to'plamlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi. -T.: 2000, 2001, 2002y.y.
2. O'zbekistonning iqtisodiy yo'nalishlari. TESIS. 1999, 2000, 2001y.y.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Davlat byudjetining ijrosi yuzasidan yillik hisobotlari. T.: 1999, 2000, 2001, 2002y.y.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy, oraliq va yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi; Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- ilmiy tezislar tayyorlashi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";
- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

6. ADABIYO'T

Asosiy adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi", XIIchaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan. - T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston - iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
5. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 1996 y. 1-12 sonlari, 1997y. 1-12 sonlari va ilovalari, va 1998 y. 1-5 sonlari va ilovalari. o'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Moliya va narxlar ilmiy-tadqiqot instituti., -T.: 1998.
6. Drobozina L.A. Finansi. Uch. dlya VUZov. -M.: Banki i birji, 2000.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. Darslik akad. B.Axmedov tahriri ostida, -T.: O'zbekiston, 2001.
8. Amir Temur jahon tarixida, -T.: Sharq, 1997.
9. Sabanti B.M. Teoriya finansov, Uch. pos. -M.: Menedjer, 1998, - 168 s.

10. Tkachuk M. I. Gosudarstvenniy byudjet. Uch.pos. 2-izd. Minsk: Visshaya shkola, 2001.
11. Sobirov X. Iz istorii finansov Uzbekistana, -T.: 1997.
12. Sobirov X. "Rasxodi Sredneaziatskix xanstv" – Nauchnie zapiski TINX. Vip. 23. -T.: 1964.
13. Amir Temurning iqtisodiy qarashlari// Muloqot, 1994, № 2.
14. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. Uch. dlya VUZov. -M.: Banki i birji, 2001.
15. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. Uch. dlya VUZov pod. red. Bogomazova N.V., Shishkina M.V. –S-Pb.: Universitet, 2002.
16. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. -T.: O’zbekiston Respublikasi Milliy Universiteti, 2000.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Akramov E.A., Tairov A.E. Ekonomicheskie reformi Respubliki Uzbekistan -M.: Lyuks-art, 1998.
2. Andreev V.A. Finansirovanie rasxodov sotsialnoy sferi // Ekonomika i statistika, 1993, № 2.
3. Belyaev Yu. A. Rol finansov v stabilizatsii Rossiyskoy ekonomiki// Finansi, 1997, № 1.
4. Sobirov H. Temur davlatining xarajatlari // Mulkdor haftanomasi, 1998, № 3-4.
5. Sobirov H. Mustaqillik va pul// Vatan haftanomasi, 1995, № 70.
6. Sobirov H. Arab istilosi davrida soliqlar// Soliq va bojxona xabarlar, 1997, № 8.
7. Sobirov H. Nalogi v Turkistanskom general-gubernatorstve// Jurnal nalogoplatelshika, 1998, № 3.
8. Srojiddinova Z.X. Nekotorie aspekti razvitiya gosudarstvennogo byudjeta suverennoy Uzbekistana. // Voprosi modelirovaniya i informatizatsii ekonomiki. Vip. 18. 1999.
9. Srojiddinova Z.X. Razvitie gosudarstvennogo byudjeta v usloviyax rinochnoy ekonomiki: materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii / Sb. nauch. st. Moskva 2000.
10. Tulyaganova N.B. Byudjetnaya politika v usloviyax rinochnoy ekonomiki: Chetirnadsatie mejdunarodnie Plexanovskie chteniya. / Tezisi dokladov. – M., 2001.
11. Yunusov M. Aktualnie problemi nalogovoy politiki v Respublike Uzbekistan. // Rinok, dengi i kredit. 1998. № 2.
12. Vavilov Yu.Ya. Gosudarstvenniy dolg. Ucheb. pos. -M., 1999.